



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2022- YIL YANVAR - IYUL
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5728,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2022 yil yanvar-iyul


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 9,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 18,1 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,7 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda



2022-yil yanvar-iyul

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	10 141,7	11 065,9	924,2
Sharof Rashidov tumani	15 493,6	24 384,1	8 890,5
Zomin tumani	7 515,7	4 790,3	-2725,4
Jizzax shahri	43 610,8	42 856,9	-753,9
Forish tumani	3 321,9	5 296,8	1974,9

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 45,4 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 25,8 % ni va G‘allaorol tumani 11,7 % ni tashkil etdi.

72,3 %


2021- yil

36,2 %

2022- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-iyul oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5361,3 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,6 % ini tashkil etdi.


2021-yil yanvar-iyul

92,1 %

2022-yil yanvar-iyul

93,6 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni, o'rtayuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 22,5 % (17,7 %)ni, o'rtaquyi texnologiyali – 20,8 % (18,5 %) va quyi texnologiyalisi - 50,2 % (55,8 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 23,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,0 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 77,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 34,6 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,4 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 3,5 % (2021- yilning yanvar –iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,2 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Paxta tolasi, t.	28 263,0	14 584,4	-13 678,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.	37 487,0	36 993,2	-493,8
Paxta chigiti, t.	43 627,0	23 150,4	-20 476,6
O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.	2 712,0	6 200,0	3 488,0
Paxta linti, t.	2 685,5	1 089,7	-1 595,8
Trikotaj polotnolar, t.	1 731,0	1 099,0	-632,0

2022- yilning yanvar-iyul oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 36,9 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (1,3 % kamaygan), 14,6 ming tonna paxta tolasi (52,5 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 23,1 ming tonna paxta chigiti 51,5 % ga) kamaygani kuzatildi.

Yumshoq bug‘doy va spelta uni

98,7 %


Paxta tolasi, t.

47,5 %


O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 79,9 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,0 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 77,5 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 56,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 141,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 116,5 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 883,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 111,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 697,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 48,8 % ni tashkil etgan. 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 47,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 112,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 122,3 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1780,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 125,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 %, fizik hajm indeksi 77,3 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 203,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 97,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 17,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 32,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 88,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni, fizik hajm indeksi 96,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 217,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 121,1 % ga oshgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 113,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 165,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 224,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 3,9 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 118,1 % ga o'sishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-iyul	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	147 941,7	181 385,2	33 443,5
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	12,1	3,3	-8,8
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	44 708,0	43 055,0	-1 653,0

2022-yil yanvar-iyul

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-iyul	2022-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	39 622,1	35 605,7	-4016,4
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	10 759,1	12 706,4	1 947,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 11,5 % ga pasayishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 12,0 % ga o'sishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2735,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021 yilning mos davriga nisbatan 135,7 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 47,8 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil
yanvar-iyul

22,1%

2022-yil
yanvar-iyul

22,7%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil
yanvar-iyul

77,9%

2022-yil
yanvar-iyul



77,3%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 22,7 % (2021- yil yanvar-iyul oylarida 22,0 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 35,3 % ni va Paxtakor tumani 17,6 % ni, Sharof Rashidov tumani 9,4 % ni hamda Zarbdor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zafarobod tumanida (331,3 %), Jizzax shahrida (184,2 %), Sharof Rashidov tumanida (206,6 %) hamda Paxtakor tumanida (253,6 %), qayd etildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 26,6 % shuningdek, G'allaorol tumani 37,6 %, ni, hamda Paxtakor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

2022-yil yanvar-iyul

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 24,0 % shuningdek, G'allaorol tumani 47,6 %, Paxtakor tumani 5,9 % ni tashkil etdi.

909,8 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-iyul

1377,9 mlrd. so'm



2021- yil yanvar-iyul

2115,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 32,0 % ni, shuningdek, Sharof Rashidov tumani 9,7 % ni, Paxtakor tumani esa 17,6 % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 30,5 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 19,1 % ni, Zafarobod tumani esa 16,1 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyati

2020- yil

3131,2 mlrd. so'm

2021- yil

4014,1 mlrd. so'm

2022- yil

5728,5 mlrd. so'm



2020- yil

103,0 %

2021- yil

114,2 %

2022- yil

106,7 %

Jizzax viloyati

106,7

5728,5

Jizzax shahar

107,5

1748,2

Arnasoy

101,0

136,4

Baxmal

100,4

44,8

G'allaorol

203,4

1096,2

Sharof Rashidov

106,5

275,2

Do'stlik

99,2

416,7

Zomin

103,0

175,9

Zarbdor

105,9

190,6

Zafarobod

140,8

920,7

Mirzacho'l

103,0

100,4

Paxtakor

110,3

314,0

Forish

113,7

272,0

Yangiobod

101,8


37,4

FHI, % da

mlrd. so'm



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (9 294,7 ming so'm), Zafarobod (17 764,3 ming so'm) tumanida hamda G'allaorol (6 095,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 949,2 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 825,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,3 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1886,1 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida – 3 863,6 ming so'mni, Paxtakor tumanida – 3 012,3 ming so'mni, G'allaorol tumanida – 5 722,9 ming so'mni tashkil etdi.

Jizzax viloyati



Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3905 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1151 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 29,5 % i) Jizzax shahriga, 681 tasi (17,4 %) Sharof Rashidov tumaniga, 401 tasi (10,3 %) G'allaorol tumaniga, 313 tasi (8,0 %) Zomin tumaniga va 211 tasi (5,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan

2020-yil
396 dona

2021- yil
588 dona

2022- yil
574 dona



Jami faoliyat yuritayotgan

2020- yil
3 114 dona

2021- yil
3 717 dona

2022- yil
3 905 dona